

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li</i> THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA: THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS	9-13
<i>Xurramov Xamid Bobokul o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN?	14-18
<i>Zikirova Maxprat Soliyevna</i> HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI	19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА	26-38
<i>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</i> ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	39-46
<i>Xaytboyeva Nigora Bakmatovna</i> OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES IN TEXTILE ENTERPRISES	47-52
<i>Shixiyev Raxim Muhammedovich</i> QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	53-60
<i>Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna</i> SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI	61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Navro'zova Gulchehra Nigmatovna</i> BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI	67-70
<i>Yuldasheva Diloram Yuldashevna</i> O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI	71-74
<i>Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich</i> ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI	75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Ayimbetova Zamira</i> BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI	81-87
--	-------

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i> ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLARI	88-92
<i>Петрoсянц Эрнст</i> СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i> NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i> ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Firuz Muxitdinova</i> JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i> NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i> IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i> FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i> ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i> JINOYATLARNI OLDINI OLIHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i> NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i> VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185
--	---------

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA "ATOM VA YADRO FIZIKASI BO'LIMI MAVZULARINI"
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QITISH METODIKASI. ("ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG'1». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O'ZARO
TA'SIRNING TASHUVCHILARI" MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025
Accepted: 30 August 2025
Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

PROSECUTOR'S SUPERVISION OVER THE IMPLEMENTATION OF THE LAW ON ATMOSPHERIC AIR PROTECTION

Rasulov Bakhtiyor Shavkatovich

Doctoral student of the Law Enforcement Academy

E-mail: rasulovbaxtiyor84@gmail.com

Abstract. The article presents opinions and considerations based on the specific features of prosecutorial control over the implementation of the legislation on atmospheric air protection, legal foundations, the state of national legislation and its analysis, and also draws conclusions regarding the relevance of ensuring prosecutorial control in this area.

Keywords: atmospheric air, environment, prosecutorial control, law, convention, protection.

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI

Rasulov Baxtiyor Shavkatovich

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy asoslari, milliy qonunchilik holati va uning tahlili asosida fikr va mulohazalar yuritiladi, shuningdek, ushbu sohada prokuror nazoratini ta'minlash dolzarb ekanligi bilan bog'liq xulosalar qilinadi.

Kalit so'zlar: atmosfera havosi, atrof-muhit, prokuror nazorati, qonun, konvensiya, muhofaza qilish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N21>

KIRISH

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Konvensiyaning maqsadi ekologiya, atrof-muhit va fuqarolarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki bilan bog'liq hamkorlikni tartibga solish, shuningdek, odil sudlovdan foydalanishni ta'minlashdan iborat.

U davlat organlari va tashkilotlari tomonidan atrof-muhitning havo, atmosfera, suv va tuproq kabi unsurlari to'g'risida zarur axborotni keng jamoatchilik talabiga binoan taqdim etishni, sohani rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalarini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlashni belgilaydi.

O'zbekistonning mazkur Konvensiyaga qo'shilishi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida inson huquq va erkinliklarini munosib himoya qilishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikka erishish bo'yicha xorijiy hamkor davlatlar bilan birgalikdagi sa'y-harakatlarni

amalga oshirish, shuningdek, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida nafaqat O'zbekiston, balki dunyodagi ko'plab mamlakatlar iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilayotganini qayd etdi. Prezident 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilib, hukumat yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqishi belgilandi.

Ushbu dasturda "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi ta'kidlandi.[1]

Tabiatning eng muhim va ajralmas qismi hisoblangan atmosfera havosini muhofaza qilish kabi muhim masalalarga davlat darajasida katta e'tibor berilayotgani ham bu sohada milliy qonunchilik va uning ijrosi bilan bog'liq vaziyatni chuqur o'rganish va tahlil qilish zarurligidan dalolat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining buyruq va topshiriqlari asosida ish olib boriladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish nafaqat milliy qonunchilik, shuningdek, xalqaro hujjatlar bilan ham amalga oshiriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1993-yildan buyon BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasining (Nyu-York, 1992-yil may) a'zosi hisoblanadi, ushbu Konvensiyaga Kioto protokoli 1998-yilda imzolangan va 1999-yilda ratifikatsiya qilingan, Parij bitimi esa 2017-yilda imzolangan va 2018-yilda ratifikatsiya qilingan, Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi 1985-yil mart, Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal protokolining (MP) (16-sentyabr 1987-yil) Pekin tuzatishi (dekabr 2002-yil) yurtimizda 2006-yil 31-oktyabr kuni ratifikatsiya qilingan. Ushbu xalqaro hujjatlarni milliy huquq tizimiga tatbiq qilish uchun milliy dastur, konsepsiya va hukumat qarorlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi hukumati ekologik holatni yaxshilash uchun har yili Atmosfera havosini muhofaza qilish qonuniga o'zgartishlar kiritib kelmoqda. Masalan, sanoatning ifloslantiruvchi chiqindilarini kamaytirish maqsadida yangi ekologik texnologiyalarni tatbiq etish va ularga subsidiyalar ajratish haqida qonunlar qabul qilingan. Shuningdek, havoning ifloslanishi va sanoat chiqindilarining ahamiyatini kamaytirish uchun ekologik monitoringni kuchaytirish zarurati ko'rsatib o'tildi.

Yuqorida keltirilgan barcha hujjatlarning qonuniy ijrosi va ijrosi ustidan nazorat huquqni muhofaza qilish organlari, shu jumladan Prokuratura xodimlari zimmasiga yuklatilgan. Chunki "**Prokuratura to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida 9.08.2001-yildagi 257-II-son qonunning 20-moddasiga ko'ra, Respublikamiz hududidagi barcha vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o'zini

o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi[2] prokuror nazorat predmetining predmeti hisoblanadi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmeti faqatgina yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan cheklanib qolmaydi, ya'ni turli idoraviy-normativ hujjatlar va ularning ijrosi ham bu sohada prokuror nazoratining predmeti bo'lishi mumkin.

Atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazorati predmeti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident qaror va farmonlari, hukumat qarorlarining qonuniy ijrosi va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining qarorlari, shuningdek, Bosh prokurorning sohaga oid buyruqlari, tegishli ekologiya tashkilotlarining mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari va chiqargan hujjatlarining qonuniyligini ta'minlashdan iborat.

Atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratini ta'minlashda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalaniladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari: "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risida, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida, "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari: "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari: "Ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash" haqida, "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi" to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida, "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish" to'g'risida, "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining buyruqlari: "Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarni xatlovdan o'tkazish hamda unga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini belgilash to'g'risi"dagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida;

O'zbekiston Respublikasining qonunlari: "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risida, "Ekologik ekspertiza" to'g'risida "Ekologik nazorat to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida "Metrologiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" to'g'risida.

Prokuror nazorati o'z mohiyatiga ko'ra, davlat hokimiyatining har qanday qonunbuzarlikka qonunda belgilangan u yoki bu shaklda ta'sir ko'rsatishi lozim bo'lgan davlat hokimiyati institutidir. Shuningdek, prokuror fuqaroning huquqlari va erkinliklarini hamda

jamiyatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida qonunda belgilangan huquqiy munosabatlar ustidan nazorat olib boradi. Shunday qilib, prokuror nazorati davlatning faqat qonun asosida tashkil etiladigan va vazifasi qonunbuzarliklarga qarshi kurashishdan iborat bo'lgan faoliyati ekanligiga qaramay, uning vazifalari jumlasiga Konstitutsiyada mustahkamlangan, biroq tarmoq qonun hujjatlarida muayyanlashtirilmagan inson huquqlarini buzish, kafolatlari qonunda aniq belgilab qo'yilmagan huquqlarni buzish holatlariga qarshi kurash kiradi, deb qayd etishimiz mumkin.[3]

Yuqoridagi ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish davomida tadqiqot mavzusiga oid empirik materiallar yig'ish, analiz va sintez metodlaridan, shuningdek, qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalaniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Prokuratura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-bo'limi 37-moddalarida Prokuror nazorati hujjatlarining turlari ko'rsatib o'tilgan. Bularga quyidagilar kiradi: Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlaridir. Prokuror nazorati hujjatlariga huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, shuningdek qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish vositasi sifatida qaralmog'i lozim. Prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlash mobaynida ulardan har birining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini farqlab olish zarur. Xususan, protest keltiriladi, qaror qabul qilinadi, taqdimnoma va ariza kiritiladi, ogohlantiruv e'lon qilinadi. Tayyorlangan har bir prokuror nazoratining hujjati xususiyatiga ko'ra nomlanishi (protest, taqdimnoma va hokazo), prokuratura organlarida ish yuritish tartibiga amal qilingan holda sana qo'yilishi va raqamlanishi lozim. Barcha prokuror nazorati hujjatlari bitta maqsadga, ya'ni:

- qonun buzilishining haqiqatan bartaraf etilishiga erishish, buzilgan huquqlarni tiklash va qonunga zid bo'lgan hujjatni bekor qilish;

- aniqlangan qonun buzilishining mazmunini tushuntirish;

- ularni bartaraf etish uslublari bo'yicha yangi tavsiflar berish;

- aybdor shaxslar doirasini aniqlash va sodir etilgan qonunbuzarlikning xavflilik darajasidan kelib chiqqan holda ularning javobgarlik (shu jumladan, moddiy) masalasini belgilash;

- profilaktik ta'sir o'tkazish va jamoatchilik fikrini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Har bir prokuror nazorati hujjatida buzilgan normativ- huquqiy hujjatning nomi va talablari, qonun buzilishining kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlar, shunga yo'l qo'ygan shaxslar va ularning javobgarlik masalasi aniq aks ettirilishi ushbu hujjatlarning huquqiy va mantiqiy asosini tashkil etadi. [4]

Fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan muhim va asosiy huquqlaridan biri — fuqarolarning atrof-muhit, tabiatga bo'lgan huquqlaridir. Bu borada Bosh prokuror barcha prokurorlardan tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilikni bajarilishi ustidan nazorat qilishni kuchaytirish, tabiat boyliklarini saqlashni ta'minlashda qishloq xo'jaligi tasarrufida bo'lgan yerlarni izdan chiqarishga, o'rmon boyliklari, hayvonot dunyosining yo'qotilishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurash choralari yuzasidan belgilangan qonunlarning qo'llanishi ustidan doimiy nazoratni o'rnatish muhim vazifa ekanligini o'z buyrug'ida ko'rsatib o'tgan. Prokuror nazorati predmeti fuqarolarimizning sog'lig'iga, tabiatga nisbatan huquqbuzarliklarga qarshi qaratilishi, huquqbuzarliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga

qaratilishi lozimligi, atrof-muhitni sog'lomlashtirish, insonlarning hayot sifatini yomonlashtiradigan ekologik huquqbuzarliklardan ogohlantirish ishlarini kuchaytirilishi lozim. Ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan ham O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish yuzasidan prokurorlik faoliyatini samaradorligini oshirish to'g'risida»gi yuqorida ta'kidlangan buyruq mazkur soha bo'yicha ham sohaviy normativ hujjat hisoblanadi.[5]

Atrof-muhit va atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi ustidan prokuror nazoratining o'ziga xos jihatlari:

- Atrof-muhit va atmosfera havosini muhofaza qilish sohasiga oid maxsus qonun hujjatlari va idoraviy hujjatlarning ijrosi va nazoratini qamrab olish;
- Atrof-muhit va atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash;
- Atrof-muhit va atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq fuqarolarning va davlat manfaatlarini himoya qilish;
- Atrof-muhit va atmosfera havosini muhofaza qilish mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatini nazorat qilish.
- Atrof-muhit va atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq qonun buzilish holatlarini bartaraf etish, ekologik huquqbuzarliklarni oldini olish va ularni nazoratini amalga oshirish.

Prokuror nazorati hujjatlari aniq shaxslarga hamda muayyan faktlarga qaratilgan bo'ladi. Nazorat hujjatlari bevosita aniq qonun buzilishlarini, ularni kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar nafaqat o'rnatilgan qonuniy tartibda bo'lishi, balki ularni tegishli tartibda to'g'ri rasmiylashtirish qonuniylikni mustahkamlashni, shaxs huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlaydi.[6]

O'zbekiston Respublikasi uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va jamiyatning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan atmosferaning ifloslanishini kamaytirish va prokuratura tizimini samarali ishlatish yo'nalishida bir qancha qonunlar qabul qilingan va ularga o'zgartishlar kiritilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish, mamlakatning ekologik holatini yaxshilash va aholi salomatligini ta'minlash uchun juda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, ushbu sohadagi asosiy huquqiy asoslarni belgilab bergan. Ushbu qonun, shuningdek, atmosferaning ifloslanishini kamaytirish, sanoat chiqindilari va transport vositalarining zararli gazlar chiqarishini nazorat qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va aholi salomatligini himoya qilish, atmosferaga zararli moddalar chiqarishni kamaytirish uchun texnologik yangiliklarni tatbiq etishni ta'minlaydi.

Ushbu qonunlarning ijrosi va uning ijrosini amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari mansabdor shaxslarining qonuniy harakatlarini nazorat qilish hududlardagi tegishli prokuratura organlari xodimlarning atrof-muhit va atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishdagi asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ekolog olimlar, "Mamlakat iqlim bo'yicha Parij bitimini imzoladi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha milliy harakat dasturini qabul qildi, O'zbekiston quyosh va

shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirmoqda. Masalan, Markaziy Osiyoda 100 megavatt quvvatga ega birinchi quyosh elektr stansiyasi qurildi, daraxt ekish va shahar bog'larini barpo etish ishlari olib borilmoqda va shaharlarda havo ifloslanishiga qarshi kurash choralari ko'rildi"[7] — deya ta'kidlaydi.

O'zbekiston hukumati ekologik holatni yaxshilash uchun har yili Atmosfera havosini muhofaza qilish qonuniga o'zgartishlar kiritib kelmoqda. Masalan, sanoatning ifloslantiruvchi chiqindilarini kamaytirish maqsadida yangi ekologik texnologiyalarni tatbiq etish va ularga subsidiyalar ajratish haqida qonunlar qabul qilingan. Shuningdek, havoning ifloslanishi va sanoat chiqindilarining ahamiyatini kamaytirish uchun ekologik monitoringni kuchaytirish zarurati ko'rsatib o'tildi.

Prokurorlik nazorati hujjatlarining qo'llanish ko'lemi yildan-yilga ortib borayotganligi jamiyatda qonuniylikning qoniqarsiz holati bilan birga, ayni vaqtda prokuror nazoratiga bo'lgan ehtiyojning haqiqiy zaruratini ko'rsatmoqda.[8]

Prokuratura tizimi davlat organlarining, shu jumladan, ekologik holatni nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga kiritiladigan o'zgartishlar asosida, prokuratura organlarining faoliyati yanada samarali tashkil qilinishi, ayniqsa ekologik holatni nazorat qilish bo'yicha bir necha takliflarni ilgari surish mumkin.

Prokuratura organlarining fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilishdagi ishtiroki kuchaytirish;

Ekologik xatarlarga qarshi kurashish uchun huquqni muhofaza qilish organlarida yangi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish;

Prokuratura organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari bilan izchil hamkorligini, shuningdek, maxsus ekologik nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlarning qonuniy harakatlari ustidan prokuror nazoratini tashkil etish chora-tadbirlari aniq ko'rsatish zarur;

Prokuraturaga davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ekologik jinoyatlarga qarshi kurashish, shuningdek, ekologik qonunlar ijrosini samarali nazorat qilishda zaruriy imkoniyatlarni yaratish;

Prokuratura organlariga ekologik jinoyatlar bo'yicha tergov va surishtiruv ishlarini nazorat qilishda aniq ko'rsatmalar berishi, shuningdek, ekologik jinoyatlar bo'yicha prokuratura xodimlarining sud ishlarida ishtiroki kabi masalalari yoritilishi zarur.

XULOSA

Atmosfera havosini muhofaza qilish va prokuratura faoliyatining takomillashuvi, O'zbekistonning ekologik muammolarini hal etish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim qadamdir. Atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi ustidan samarali prokuror nazoratini tashkil qilish fuqarolarning qonun bilan himoyalangan ekologik huquqlarini ta'minlash, mamlakatning ekologik xavfsizligini mustahkamlash, aholi salomatligini himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish va davlat organlarining samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/20/yil/>.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001-yildagi 257-II-son, <https://lex.uz/docs/-106197>.

3. Ахмаджанов О. ЭКОЛОГИЯ ВА АТРОФ-МУҲИТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ СОҲАСИДА ПРОКУРОР НАЗОРАТ ҚИЛИШДА ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 57-63-б.
4. Darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2023-yil, 58-59-б.
5. Hakimjanovich O. J. FUQAROLARNING SIYOSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA RIOYA ETILISHI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 15. – С. 65-68-б.
6. JUMAYEV S. (2024). QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVI MAQSADI, PREDMETI, VOSITALARI HAMDA AHAMIYATI. ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ, 4(2), 48–53-б.
7. Boboeva M. S. EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO VA MILLIY TAJRIBA //International scientific journal of Biruni. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 59-65-б.
8. Ismatillayevich K. U. DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMIDA PROKURATURA ORGANLARINING O'RNI VA AHAMIYATI //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 86-91-б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).